



ORIENTAL UNIVERSITETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI

**«SHARQ TILLARI TADQIQI
VA TA'LIMI MUAMMOLARI»**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

10-dekabr, 2024-yil

TOSHKENT-2024

JARKINOVA T. Falsafiy lirika ufqlarida	181
FAYZIYEVA S. Jadidlar davrida sharq adabiyotining o‘rganilishi	185
EGAMQULOV K. “Nurali” dostonida lo‘li, ot obrazlari talqini	189
RAJABOV F. Nurulloh Gench she‘rlarida tabiat tasviri	192
UMAROVA N. XX asrning 60-yillarida Misr adabiyotida romanchilik rivoji	196
TADJIYEVA U. Arab xalq maqollarining semantik xususiyatlari	200
TILOVMURODOVA SH. Madaniy uyg‘unlashuv va narrativ innovatsiya: Nirmal Varmaning jahon adabiyotiga qo‘shgan hissasi	204
RAYIMJONOV S. Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik merosi	207
RAXMONOV A. Mutarriziy va uning “Nahv risolasi”	211
TURSUNALIYEVA M. Ogahiyning “Gulshani davla” asari na’t qismining qo‘lyozma va nashridagi tafovutlari	215
NE‘MATOVA S. Madaniy meros: Ahmad Yassaviy ta’limoti	219

3-SHO‘BA. SHARQ TILLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

НАСИРОВА М. Чет тилини ўқитиш жараёнида муаммоли ўқитиш технологиясини қўллаш	225
RUSTAMIY S. Arab tilini o‘qitishning dastlabki bosqichida qo‘llanadigan usullar	229
MIRQOSIMOVA M. Kooperativ texnologiya – til ta’limida faol ta’lim muhitini yaratishning innovatsion shakli	233
ALIMUXAMEDOV R. Mumtoz adabiyotni o‘qitishda asl matnlardan foydalanish	237
AXMEDOVA N. Til ta’limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	241
МАХАМАДХОДЖАЕВ Б. Институты и центры по обучению арабскому языку лиц, не являющихся его носителями	244
TURG‘UNOVA N. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va ulardan ona tilini o‘qitishda foydalanish	249
YAKUBOVA F. Sharq tillarini o‘qitishda ba’zi fikr va mulohazalar	254
O‘TKIROVA L. Arab tili kabi sharq tillarini o‘qitishda masofaviy ta’lim muammolari va uning rivojlantirish yo‘llari	259
SIDIQOVA M. Xorijiy tillarni o‘qitishda masofaviy ta’lim muammolari va uni rivojlantirish yo‘llari	263

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARDAN ONA TILINI O‘QITISHDA FOYDALANISH

Nilufar TURG‘UNOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur maqoladi pedagogik texnologiya tushunchasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari xususida so‘z yuritiladi. Ta‘lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi, turlari haqida ma‘lumot beriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalaridan muammoli ta‘lim, loyiha ta‘limi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi kabi turlariga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, ularning pedagogik-psixologik asoslari bayon etilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning til ta‘limidagi o‘rni ona tilini o‘qitishga bog‘langan holda tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim texnologiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, tamoyillar, muammoli ta‘lim texnologiyasi, loyiha texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish.

O‘qitish jarayonining tizimli va samarali bo‘lishiga yordam beruvchi eng muhim vositalardan biri bu ta‘lim texnologiyalaridir. Texnologiyalarning asosiy maqsadi o‘quvchiga puxta bilim berish, uni faollashtirish, qiziqtirishga qaratiladi. So‘nggi yillarda ta‘lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari tushunchasi keng qo‘llanmoqda.

Pedagogik texnologiya atamasi ta‘limni yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad, vazifalarni aniq belgilash, ta‘lim natijasini oldindan qayd etish, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta‘lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashni anglatadi¹⁹². Pedagogik texnologiya ta‘lim metodlari, usullaridan ancha keng tushuncha bo‘lib, o‘z xususiyatiga ko‘ra metod va usullarni ham o‘z ichiga qamrab olishi mumkin. Ta‘lim texnologiyalarida o‘qitish jarayoni, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati muayyan belgilangan algoritmlar asosida amalga oshiriladi. Shu sababdan ham ta‘lim texnologiyalari darsning qaysidir qismi uchungina tegishli bo‘lmaydi, butun boshli dars va bir nechta darslar ham bitta texnologiya asosida tashkil etilishi mumkin. Pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri natijani oldindan ko‘ra bilish va unga olib boradigan yo‘lni aniq belgilab olishdir.

Ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida quyidagi muhim tadbirlarni amalga oshirish zarur¹⁹³:

1. Ta‘lim jarayoni ishtirokchilari – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘quv materialini o‘rganish rejasini tuzish.
2. Mavzulararo bog‘lanish va o‘quvchilar tayyorgarligini hisobga olish.

¹⁹² Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005 – 288-b.

¹⁹³ Omonov H. va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 68-70-b

3. O'quv birliklari (mezonlari)ni belgilash.
4. O'quvchilar bilimini diagnostik tahlil qilish.
5. Tuzatishlar kiritish (diagnostik tahlil natijasi 50 foizdan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa)
6. Qayta to'ldirish (kamchiliklarni bartaraf etish)
7. Kutilayotgan natijani olish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra bu ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi¹⁹⁴.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari o'z mohiyatiga ko'ra, o'rganuvchini to'laqonli subyekt deb hisoblaydi, ya'ni o'quvchilarning barchasi bir xil fikrlovchi, o'quv materialni bir xil darajada o'zlashtirib oluvchilar emas. Ular turli xil layoqat, qobiliyat, qiziqish va individual xususiyatlarga ega. Shu bois shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida qabul qilish, uni hurmat qilish, kamsitmaslik, ta'limda uning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish, o'quvchilar o'rtasida do'stona muhit yaratish, baholashda xolis bo'lish kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Adabiyotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- tabaqalashtirilgan ta'lim;
- modulli ta'lim;
- masofaviy ta'lim;
- loyiha ta'lim;
- muammoli ta'lim;
- hamkorlik ta'limi;
- o'yin texnologiyalari

Sanalgan texnologiyalarning barchasi turli fanlarni o'qitishda, xususan ona tili ta'limida ham samarali hisoblanadi. Ona tili darslarida fan mavzusi va maqsadiga mos bo'lgan texnologiyadan foydalanish o'quvchilar tarafidan o'quv materialini to'liq o'zlashtirilishiga, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashiga imkoniyat yaratadi. Quyida ayrim texnologiyalarning ona tilini o'qitishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqamiz:

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda

¹⁹⁴ Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. – Toshkent.: “Navro'z”, 2019. – 137-b.

utiladi¹⁹⁵. Muammoli o'qitishning 3 ta asosiy shakli mavjud: o'quv materialini muammoli bayon etish, qisman izlanish va mustaqil tadqiqotchilik faoliyatidan iboratdir¹⁹⁶. Muammoli ta'limning asosiy mohiyati o'quvchilarga bilimni tayyor holda bermasdan, ularni izlanishga, tanqidiy-tahliliy fikrlashga, faollikka undashdan iboratdir. Mazkur ta'lim texnologiyasi muammoli savol, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ona tili darslarida muammoli o'qitishdan foydalanishda o'qituvchi quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi kerak:

- maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, natijani oldindan ko'ra olish;
- muammoli savol, topshiriqlar tanlayotganda mavzuning mazmun-mohiyati, qiyinlik darajasi, o'quvchilarning bilim darajasi, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- dars jarayonida o'tilgan mavzular bilan bog'lanishni ta'minlash, turli til bo'limlariga oid bilimlarni qamrab olishga harakat qilish;
- muammoli vaziyatlar bilan ishlash davomida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlari ustida ishlab borish.

Quyida o'quvchilarga ona tili darsida taqdim etilgan muammoli vaziyat namunasi keltirilgan (10-sinf Ona tili darsligi, "Tilim – boyligim" mavzusi doirasida):

Tilshunos olim Aziz Qodirov o'zbek tilida turli xorijiy so'zlarning noo'rin qo'llanilishi, ayrim so'zlarning o'zbek tilida muqobili bo'lsa-da, ruscha, inglizcha nomlaridan foydalanish holatlarini qattiq tanqid qiladi. Ayniqsa, turli tashkilot, o'quv markazlari, do'kon, oshxonalar, xizmat ko'rsatish markazlariga qo'yilgan ajnabiy nomlar, tushunarsiz shiorlar olimning jahlini chiqaradi. Uning fikricha, bunday nomlar o'zbek tilining nufuziga, milliy sha'nimizga putur yetkazadi. Aziz aka yaqinda shu masala bo'yicha yaqin do'sti, tadbirkor Kamoliddin Ergashev bilan tortishib qoldi. Do'stining fikricha, xorijiy nomlar o'zbek tilini buzulishiga olib kelmaydi, bunday nomlar mijozlarni jalb qilishga, brendni jahonda tanilishiga yordam beradi. Shuningdek, tadbirkorning so'zlariga ko'ra, biznes egasi yoki ma'lum bir brend asoschisi o'z mahsulotiga istalgan nomni tanlashga haqli, axir bu uning uzoq yillik mashaqqatli mehnatining mahsuli...

Muammoli vaziyat yuzasidan o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

Berilgan vaziyatda tasvirlangan holat (o'zbek tilida xorijiy so'zlar, nomlarning faol qo'llanilishi)ning kelib chiqishiga asosiy sabablarni sharhlang.

Qahramonlarning fikrlariga munosabat bildiring, kimning qarashlarini qo'llab quvvatlaysiz? Nima uchun?

Loyiha ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning tanlangan muammo asosida olib boriladigan, ma'lum bir natijani qo'lga kiritishga qaratilgan maqsadli faoliyatidir. Loyiha texnologiyasi bir necha bosqichlarda tashkil etiladi (muammoni qo'yish, mavzuni tanlash, guruhlarini shakllantirish, tadqiqot faoliyati, natijalarni taqdimot

¹⁹⁵ Omonov H. va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009. – 91-b.

¹⁹⁶ Avliyakov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: Cho'lpon NMIU, 2012. – 85-86-b.

qilish, loyiha yakuni va tahlili). O'quvchi belgilangan maqsad asosida bosqichma-bosqich vazifalarni bajargan holda loyiha yakunida individual yoki jamoaviy tarzda bajarilgan ishni taqdimot qilib beradi. Loyiha ta'limi o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlanishi, o'quvchida tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

So'nggi yillarda ona tili fani bo'yicha dastur va darsliklarda loyihalar bilan ishlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ona tili darslarida o'quv loyihalari bilan ishlash bir tarafdin o'quvchilarda qiziqish va faollikni oshirsa, ikkinchi tarafdin bilimlarni ongli o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Ona tili darslarida quyidagi turdagi o'quv loyihalar bilan ishlash mumkin:

- devoriy gazeta, plakat, reklama bannerlari tayyorlash;
- turli kitobcha, broshyura, to'plamlar tayyorlash;
- muayyan mavzuda lug'atlar yaratish (imlo, izohli, rasmlil, ko'p tillil lug'atlar...);
- mustaqil ravishda gazeta va jurnal yoki ularning sahifasini tayyorlash;
- radionutq, intervyu, podkastlar tayyorlash;
- matn tahriri bilan bog'liq ish turlari va b.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning muayyan guruh yoki jamoa tarzida birgalikda o'qib-o'rganishlari, berilgan topshiriqlarni o'zaro hamkorlikda bajarishlarini nazarda tutadi. Mazkur texnologiya bilan ishlash davomida o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashadilar, bahs-munozaraga kirishadilar, o'zaro yordam berish, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga harakat qiladilar. Shundan kelib chiqqan holda hamkorlikda o'qitish o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mas'uliyatlilik, javobgarlik, daxldorlikni his qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasining komandada o'qitish, kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish ("Arra" usuli), birgalikda o'qitish, guruhlarda tadqiqot olib borish kabi shakllarda olib borilishi qayd etilgan.

Ona tilini o'qitishda ham hamkorlik texnologiyasidan foydalanish ijobiy natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar birgalikda ishlashlari, vazifa-topshiriqlarni hamkorlikda hal etishlari ular o'rtasida do'stona muhit yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari o'quvchini shaxs sifatida e'tirof etishga, ta'limda uning qobiliyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlarini hisobga olishga e'tibor qaratadi. Mazkur texnologiyalar o'quvchiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, bag'rikenglik, baholashda xolislik kabi tamoyillarga tayanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarida hisoblangan muammoli ta'lim, loyiha texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari o'quvchida ijodkorlik, kreativlik, mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur texnologiyalar asosida ona tili darslarini tashkil etish o'quvchilar tomonidan tilga oid bilimlarni puxta o'zlashtirilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005 – 387 b.
2. Omonov H. va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 240 b.
3. Sharopova Z.F. Ta’lim texnologiyalari. Darslik. – Toshkent.: “Navro‘z”, 2019. – 340 b.
4. Avliyakov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2012. – 208 b.
5. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. / Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. – М.: Издательский центр Академия, 2002. – 272 с.